



MAXSUS IQTISODIY ZONALAR: TUSHUNCHA, TASNIF, SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI

Anvarxonov Abdulatifxon

Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti

ORCID: 0009-0001-1334-2881

abd.anvarxonov@wiut.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) tushunchasi, tasnifi va tarixiy shakllanish bosqichlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Xalqaro tashkilotlar (BMTSTT, Jahon banki) va yetakchi tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan ta'riflar qiyosiy o'rganilgan. Xitoy, Hindiston, Filippin, Irlandiya va Bangladesh kabi mamlakatlarning MIZ tajribasi ko'rib chiqilgan. O'zbekistondagi MIZlarning qonunchilik asoslari, institutsional rivojlanishi va hozirgi holati tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida MIZ siyosatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: maxsus iqtisodiy zona, erkin iqtisodiy zona, xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiya, eksport, iqtisodiy rivojlanish, O'zbekiston.

СПЕЦИАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЗОНЫ: ПОНЯТИЕ, КЛАССИФИКАЦИЯ, ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ И ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА

Анвархонов Абдулатифхон

Международный Вестминстерский университет в городе Ташкенте

Аннотация. В данной статье научно-теоретически проанализированы понятие, классификация и этапы исторического формирования специальных экономических зон (СЭЗ). Сравнительно изучены определения, предложенные международными организациями (ПРООН, Всемирный банк) и ведущими исследователями. Рассмотрен опыт СЭЗ таких стран как Китай, Индия, Филиппины, Ирландия и Бангладеш. Проанализированы законодательные основы, институциональное развитие и современное состояние СЭЗ в Узбекистане. По результатам исследования разработаны рекомендации по совершенствованию политики СЭЗ.

Ключевые слова: специальная экономическая зона, свободная экономическая зона, прямые иностранные инвестиции, экспорт, экономическое развитие, Узбекистан.

SPECIAL ECONOMIC ZONES: CONCEPT, CLASSIFICATION, STAGES OF FORMATION, AND THE EXPERIENCE OF UZBEKISTAN

Anvarkhonov Abdulatifkhon

Westminster International University in Tashkent

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the concept, classification, and stages of historical formation of special economic zones (SEZs). The definitions proposed by international organizations (UNCTAD, World Bank) and leading researchers have

been studied in comparison. The experience of SEZs in countries such as China, India, the Philippines, Ireland, and Bangladesh was reviewed. The legislative framework, institutional development, and current state of SEZs in Uzbekistan are analyzed. Based on the research results, recommendations have been developed to improve SEZ policy.

Keywords: special economic zone, free economic zone, foreign direct investment, export, economic development, Uzbekistan.

Kirish.

Globalashuv jarayonlarining jadallashuvi sharoitida dunyoning ko'plab mamlakatlari iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni (XTTI) jalb etish, eksport salohiyatini kengaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadida maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) tizimidan foydalanib kelmoqda. Zamonaviy MIZlar – bu mamlakat hududi ichida alohida ajratilgan, imtiyozli huquqiy-iqtisodiy rejim ostida faoliyat yurituvchi va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvning samarali mexanizmi sifatida tan olingan geografik maydonlardir.

Agar 1975-yilda dunyoda atigi 79 ta MIZ mavjud bo'lgan bo'lsa, 1997-yilda bu ko'rsatkich 845 taga, 2008-yilda 3 500 taga, 2018-yilda 5 400 taga va nihoyat 2022-yilga kelib 7 000 dan ortiqqa yetdi. Ushbu jadal o'sish MIZlarning milliy iqtisodiy siyosatda tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotganidan dalolat beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, 2022-yil holatiga ko'ra ushbu zonalarning qariyb 90 foizi rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Ilk MIZlar savdo va logistika markazlari sifatida asrlar avval Yevropa shaharlarida – Livorno (Italiya, 1547), Marsel (Fransiya, 1669), Gibraltar (Buyuk Britaniya, 1704) kabi hududlarda paydo bo'lgan. Zamonaviy MIZlar esa 1959-yilda Irlandiyada Shannon erkin iqtisodiy zonasidan o'z tarixini boshlagan. Keyinchalik ushbu model Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlariga keng yoyildi.

O'zbekistonda MIZlarni rivojlantirish bo'yicha izchil va maqsadli siyosat olib borilmoqda. 1996-yilda qabul qilingan birinchi qonundan tortib, 2020-yilgi yangi tahrirgacha bo'lgan davr mobaynida qonunchilik bazasi sezilarli darajada kengaydi va takomillashdi. 2025-yilga kelib mamlakatda 19 ta erkin iqtisodiy zona, 15 ta maxsus ilmiy-texnologik zona, 4 ta turistik-rekreatsion zona, 2 ta erkin savdo zonasi va 5 ta maxsus sanoat zonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi MIZlar tushunchasi, tasnifi va shakllanish bosqichlari bo'yicha ilmiy-nazariy tahlil o'tkazish, xalqaro tajribani umumlashtirish hamda O'zbekiston sharoitidagi institutsional va qonunchilik asoslarini baholashdan iborat. Maqola natijalari MIZ sohasidagi keyingi ilmiy tadqiqotlar va amaliy siyosat ishlab chiqish uchun zamin bo'lib xizmat qilishi ko'zda tutilgan.

Adabiyotlar sharhi.

MIZlar bo'yicha xalqaro adabiyotlarda terminologik xilma-xillik yaqqol namoyon bo'ladi. 1934-yilda AQSH Tarif komissiyasi MIZni "cheklangan hudud, bojxona tartib-taomillaridan ozod etilgan, tovarlar qayta eksport qilinishi ko'zda tutilgan maxsus maydon" sifatida ta'riflagan. Ushbu ta'rifga ko'ra, zona hududiga kirgan tovarlar bojxona rasmiylashtiruvizisiz qabul qilinishi, saqlanishi, qayta ishlanishi va qayta yuklanishi mumkin edi. 1988-yilda AQSH Kengashi esa erkin zonalarni mamlakatning bojxona hududidan ajratilgan mustaqil bo'lim sifatida izohladi.

Querci va McCalla kabi tadqiqotchilar erkin zonalarni milliy qonunchilikdan – jumladan, bojxona bojlari, soliq tartibi, bank qoidalari yoki minimal ish haqi talablaridan – ma'lum darajada mustaqil yarim-avtonom hududlar sifatida ta'riflashadi. Madani esa erkin zonani aniq chegaralangan va o'ralgan hudud bo'lib, unda iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish uchun maxsus imtiyozlar va siyosiy choralar majmuyi qo'llaniladi, deb izohlaydi. Bu yondashuv Yangi Kioto konvensiyasi ta'rifida ham o'z aksini topgan.

Boroza va Klepo (2017) terminologik murakkablikning asosiy sababini zonalarining uzoq tarixiy evolyutsiyasi bilan bog'laydi. Bost (2019) esa uch asosiy sababni ko'rsatadi: birinchidan, zamonaviy zonalar bilan bog'liq terminlarning yetarli darajada o'zlashtirilmaganligi; ikkinchidan, mamlakatlarning o'z iqtisodiy salohiyatiga moslab yangi nomlar joriy etish tendensiyasi; uchinchidan, 1970–1980-yillarda shakllangan salbiy imijdan qochish maqsadida "texnologik park" yoki "innovatsion zona" kabi zamonaviyroq nomlardan foydalanilishi. Bu omillarning barchasi birgalikda MIZ tushunchasining yagona ilmiy ta'rifini shakllantirishni qiyinlashtirmoqda.

2019-yilda BMT Savdo va Taraqqiyot Tashkiloti (BMTSTT) Jahon investitsiya hisobotida MIZlarga eng to'liq va universal ta'rifni taklif qildi: MIZ – hukumatlar tomonidan sanoat faoliyatini rag'batlantirish uchun moliyaviy, huquqiy imtiyozlar hamda infratuzilma yordami taqdim etadigan aniq geografik hudud. BMTSTT ushbu taklifida MIZni umumiy tushuncha sifatida belgilab, erkin iqtisodiy zonani (EIZ) ushbu umumiy tushuncha ichidagi asosiy kichik toifa sifatida ajratdi.

BMTSTT tasnifiga ko'ra, iqtisodiy zonalar besh asosiy turga bo'linadi: MIZlar, maxsus omborlar, maxsus sanoat zonalar, sanoat parklari va kichik iqtisodiy zonalar. Bost (2019) kichik iqtisodiy zonalarini rasmiy zona sifatida tan olinmasa-da, ular iqtisodiy zonalariga o'xshash funksional xususiyatlarga ega bo'lgan sub-kategoriya deb baholaydi. Ushbu yondashuv nafaqat an'anaviy eksportga yo'naltirilgan zonalarini, balki texnologiya parklari, moliya, logistika, ekologik va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan yangi avlod hududlarini ham qamrab olishi bilan ilmiy ahamiyatga ega.

O'zbekistonda 2020-yilgi "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonunda MIZlarga quyidagicha ta'rif berilgan: "Maxsus iqtisodiy zona – tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalari va mahalliy investitsiyalarni, yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega bo'lgan hudud". Ushbu ta'rif BMTSTT yondashuviga mos kelishi bilan birga, mahalliy xususiyatlar – ayniqsa texnologiya transferi va boshqaruv tajribasiga e'tibor berish – nuqtayi nazaridan o'ziga xos jihatlarni ham o'z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot bir necha ilmiy metodning kombinatsiyasiga asoslanadi. Har bir metodning qo'llanilishi tadqiqotning turli qirralarini yoritishga xizmat qilgan.

Qiyosiy tahlil metodi turli mamlakatlardagi MIZ tajribasini – Xitoy, Hindiston, Filippin, Bangladesh, Irlandiya – va ularning iqtisodiy ko'rsatkichlarini solishtirishda qo'llanilgan. Bu metod orqali muvaffaqiyatli MIZ dasturlarining umumiy xususiyatlari va O'zbekiston uchun qo'llash mumkin bo'lgan saboqlar aniqlangan.

Tarixiy-evolyutsion metod MIZlarning 1547-yildan hozirgi kungacha bo'lgan evolyutsiyasini bosqichma-bosqich o'rganishda ishlatilgan. Bu orqali MIZlarning har bir tarixiy bosqichda qanday maqsadlar asosida tashkil etilgani va qanday o'zgarishlarga uchrashi tahlil qilingan.

Tizimli tahlil metodi MIZlarning turli komponentlari, soliq imtiyozlari, bojxona rejimlari, infratuzilma, huquqiy asoslarni bir butun tizim sifatida ko'rib chiqishga imkon berdi. Normativ tahlil esa O'zbekiston qonunchiligini – 1996-yilgi va 2020-yilgi qonunlar, 50 dan ortiq qonunosti hujjatlar va 2025-yilgi Prezident farmonini, hamda xalqaro normalarni o'rganishda qo'llanilgan.

Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish metodi doirasida O'zbekiston Milliy Statistika qo'mitasining 2018-yildan hozirgi kunga qadar bo'lgan MIZlarga oid ma'lumotlari – investitsiyalar, ishlab chiqarish, eksport, import, ish o'rinlari – o'rganilgan. Tadqiqotning axborot bazasini BMTSTT, Jahon banki hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari va milliy statistika ma'lumotlari tashkil etadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, MIZlar besh asosiy tarixiy bosqichdan o'tgan. 1950-yilgacha bo'lgan davrda erkin portlar va savdo zonalari mavjud bo'lib, asosiy maqsad entrepot savdosini rag'batlantirish edi. Bu davrda MIZlar uchun rasmiy davlat siyosati belgilanmagan, investitsiya himoyasi va keng infratuzilma bo'lmagan.

1950–1970-yillarda erkin savdo zonalari eksport uchun infratuzilma yaratishga xizmat qila boshladi. Bu davrda tushuncha hali MIZ deb umumiy nomlanmagan bo'lsa-da, kichik ishlab chiqarish ulushi sekin-asta kengaya bordi. 1959-yilda Irlandiyada tashkil etilgan Shannon MIZi ilk zamonaviy MIZ sifatida tan olingan.

1970–1990-yillarda eksportni qayta ishlash zonalari mehnattalab tarmoqlarga XTTI jalb qilishning asosiy vositasiga aylandi. Avvalo Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasida keng yoyilgan bu zonalar an'anaviy importni almashtirish siyosatidan keskin chekinishni anglatardi. Hindistondagi Kandla MIZi (1965) va Xitoyning Shenzhen MIZi (1980) ushbu davrning yorqin namunalari.

1990–2010-yillarda xalqaro ishlab chiqarishning tezlashuvi va global qiymat zanjirlarining jadal rivojlanishi natijasida xizmatlar, texnologiya va logistika yo'nalishidagi yangi MIZ turlari paydo bo'ldi. 2010-yildan boshlab esa BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari qabul qilinganidan so'ng, "yashil" zonalar, ilmiy-texnologik zonalar va ekologik barqarorlikka yo'naltirilgan yangi avlod MIZlari shakllanmoqda.

BMTSTT (2019) tasnifiga ko'ra iqtisodiy zonalar besh turga bo'linadi. O'zbekistonda esa qonunchilikda erkin iqtisodiy zonalar (EIZ), maxsus ilmiy-texnologik zonalar (MITZ), turistik-rekreasion zonalar (TRZ), erkin savdo zonalari (ESZ) va maxsus sanoat zonalari (MSZ) belgilangan.

EIZlar mamlakat ichida maxsus belgilangan hudud bo'lib, soliq, bojxona, valyuta va tartib-qoidalar jihatidan soddalashtirilgan rejim bilan ishlaydi. Bugungi kunda O'zbekistonning Toshkent shahridan boshqa barcha ma'muriy-hududiy birliklarida EIZlar mavjud. MITZlar esa ilmiy tadqiqot-ishlab chiqish, innovatsiyalar va yuqori qo'shilgan qiymat yaratish sanoati uchun mo'ljallangan bo'lib, universitetlar, tadqiqot institutlari va sanoat korxonalari integratsiyasiga tayanadi.

TRZlar turizm, dam olish va rekreasion faoliyat uchun maxsus belgilangan hududlar bo'lib, bugungi kunda O'zbekistonda "Chorvoq", "Zomin", "Ohalik – Oqbo'yro – Mironqul" va "G'elon" turistik-rekreasion zonalari faoliyat yuritadi. ESZlar hududga kirgan tovarlar yoki xizmatlar bojxona va soliq cheklovlaridan ozod qilinishi mumkin bo'lgan savdo faoliyati zonalari hisoblanib, "Termiz xalqaro savdo markazi" va "O'zbekiston-Turkmaniston" erkin savdo zonalari bunga misol bo'la oladi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda qonunchilikda to'liq aks etmagan, lekin amalda faoliyat yurituvchi qo'shimcha MIZ turlari ham mavjud. Xususan, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan "Buxoro-agro" EIZi va farmatsevtikaga ixtisoslashgan bir qator EIZlar ("Zomin-farm", "Kosonsoy-farm", "Bo'stonliq-farm" va boshqalar), shuningdek, IT-parklar va paxta-to'qimachilik klasterlari shular jumlasidandir.

Turli mamlakatlar tajribasi MIZlarning milliy iqtisodiyotga qo'shgan hissasini yaqqol ko'rsatadi. Xitoy – dunyodagi eng muvaffaqiyatli MIZ tajribasiga ega mamlakat sifatida – bu sohada alohida o'rin tutadi. Xitoyda MIZlar YaIMning 22 foizini, XTTIning 45 foizini, eksportning 60 foizini ta'minlagan va 30 milliondan ortiq ish o'rni yaratgan. Bundan tashqari, MIZlar bevosita sanoatlashtirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va urbanizatsiyani jadallashtirish jarayonlariga ham turtki bergan.

Fillipinda MIZlar YaIMning 17 foizi va eksportning 64 foizini tashkil etgan. Hindistonda MIZlar jami eksportning 38 foizini, Bangladeshda esa eksportning 17 foizini va XTTIning 29 foizini ta'minlagan. Irlandiyada Shannon MIZining tashkil etilishi mahalliy infratuzilmani rivojlantirdi va aeroportga asoslangan iqtisodiy faoliyatni butunlay yangi bosqichga ko'tardi.

O'zbekistonda MIZlar tashkil qilishga qaratilgan harakatlar 1990-yillarning ikkinchi yarmida boshlangan. 1996-yilda "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi birinchi Qonun qabul qilingan. Biroq qonun qabul qilinganidan 12 yil o'tib, ya'ni 2008-yilda Navoiy viloyatida ilk EIZ tashkil etildi. 2012-yilda Toshkent viloyatining Angren shahrida, 2013-yilda esa Jizzax viloyatida yangi EIZlar ochildi.

2016-yildan keyingi davrda MIZlarning soni bir necha barobarga oshdi. 2020-yilda "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi yangi qonun qabul qilinib, MIZlarning huquqiy asosi yanada mustahkamlandi. Qonun MIZlarning turlari, huquqiy maqomi, boshqaruv tizimi, imtiyozlar va kafolatlarni batafsil belgilab berdi. Bugungi kunda ushbu qonundan tashqari 50 dan ortiq qonunosti hujjatlar (Prezident farmonlari, qarorlar va Vazirlar Mahkamasi qarorlari) MIZlar faoliyatini tartibga solmoqda.

Soliq imtiyozlari nuqtayi nazaridan O'zbekistondagi MIZ ishtirokchilari investitsiyalar hajmiga qarab foyda solig'idan ozod etiladi: 3–5 million dollar investitsiya uchun 3 yil, 5–15 million dollar uchun 5 yil va 15 million dollardan ortiq investitsiya uchun 10 yil. Bundan tashqari, mol-mulk solig'i, yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha ham imtiyozlar belgilangan.

2025-yil 4-martdagi Prezident farmoni (PF-41) MIZlar faoliyatini yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan maqsadlar va vazifalarni belgilab berdi. Farmonga muvofiq MIZlarda 2,3 milliard AQSh dollari miqdoridagi investitsiyalarni o'zlashtirish, eksport hajmini 1 milliard dollarga yetkazish, ishlab chiqarish hajmini 4,3 milliard dollarga keltirish va 12 000 ta yangi doimiy ish o'rni tashkil qilish maqsad sifatida belgilandi. Shuningdek, yangi tahrirdagi "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi qonun loyihasi va "Sanoat zonalarini to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish vazifasi ham qo'yildi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, MIZlarning samarali faoliyat yuritishi ko'plab omillarga bog'liq. Zonaning strategik jihatdan qulay joylashuvi – dengiz portlari, aeroportlar yoki tranzit yo'llar yaqinligi – birinchi navbatda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bundan tashqari, MIZ strategiyasining mamlakatning umumiy iqtisodiy rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unligi va bozor talablarini to'g'ri baholash ham muhim omillar sifatida ajralib turadi.

Empirik dalillar shuni ko'rsatadiki, hatto eng muvaffaqiyatli MIZlarda ham sezilarli natijalarga erishish uchun kamida o'n yil talab etiladi. Shu bois MIZlarni joriy etishda aniq maqsadga egalik, uzoq muddatli institutsional majburiyatlar va kuchli texnik boshqaruv guruhini shakllantirishning zaruriyati alohida ta'kidlanishi lozim. Makroiqtisodiy va siyosiy barqarorlik, tartibga solish xavflarining pastligi hamda qulay biznes muhiti investorlarning qaror qabul qilishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston misolida ham terminologik va institutsional evolyutsiya yaqqol ko'rinadi: 1996-yildan 2020-yilga qadar bo'lgan davr mobaynida qonunchilik bazasi sezilarli kengaydi va takomillashdi. Biroq, bugungi kunda qonunchilikda to'liq aks etmagan ayrim MIZ turlari – qishloq xo'jaligi va farmatsevtikaga ixtisoslashgan EIZlar, IT-parklar, paxta-to'qimachilik klasterlari – ham amalda faoliyat ko'rsatmoqda. Bu holat statistik hisobni qiyinlashtirmoqda va siyosat ishlab chiquvchilar uchun to'liq tasvir shakllantirishni murakkablashtirmoqda.

Mamlakatlar statistika idoralari tomonidan MIZlarga oid ma'lumotlar, jumladan jalb qilingan investitsiyalar, eksport hajmi va tashkil etilgan ish o'rinlari haqidagi ko'rsatkichlar ko'pincha to'liq yuritilmaydi. O'zbekistonda ham bu muammo mavjud bo'lib, statistik ma'lumotlar faqat 2018-yildan boshlab yig'ilib kelinmoqda. Vaqtinchalik qisqa tarixiy ko'rsatkich esa uzoq muddatli tahlillar o'tkazishni cheklaydi.

Xalqaro iqtisodiy huquq bozor mexanizmlarining ustuvorligini ta'kidlasa-da, MIZlar faol davlat aralashuviga asoslanadi. Shu ma'noda MIZlar davlat va bozor o'rtasidagi o'ziga xos muvozanat modelini ifodalab, mamlakatning ichki iqtisodiyotini global tizimga integratsiya qilishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi. Boshqaruv sifati nisbatan past bo'lgan yoki mamlakat bo'ylab keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish qiyin bo'lgan sharoitlarda MIZlar institutsional transformatsiyani boshlab beruvchi hududiy laboratoriya vazifasini bajaradi.

MIZlar universallik xususiyatiga ega bo'lmagan iqtisodiy-siyosiy instrument hisoblanadi. Har bir mamlakat uchun yagona, barcha sharoitlarda ishlaydigan "tayyor model" mavjud emas. MIZlarni rejalash, rivojlantirish va boshqarish yuqori darajada kontekstga bog'liq bo'lgani sababli, mavjud umumiy tamoyillar va xalqaro tajriba har bir mamlakatning o'ziga xos iqtisodiy, institutsional hamda boshqaruv sharoitlariga moslab qo'llanilishi lozim.

Muvaffaqiyatli MIZ dasturlarining eng muhim jihati – zonalarning o'ziga xos "maxsus" maqomini amalda ta'minlay olish, ya'ni biznes uchun qulay sharoit yaratish, ishonchli huquqiy va tartibga soluvchi muhitni shakllantirish hamda barqarorlik va tashqi zarbalarga nisbatan chidamlilikni ta'minlashdir. O'zbekistonning 2025-yilgi maqsad va vazifalariga erishish ham aynan shu tamoyillarga qanchalik amal qilinishiga bog'liq bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

Ushbu tadqiqot MIZlar tushunchasi, tasnifi va shakllanish bosqichlari bo'yicha keng qamrovli tahlil o'tkazib, quyidagi asosiy xulosalarga keldi:

– MIZlar dunyoda 1547-yildan boshlangan uzoq tarixga ega bo'lib, zamonaviy shaklga 1959-yildan keyin ega bo'lgan va hozirda 7 000 dan ortiq zona faoliyat yuritmoqda. Ushbu zonalarning 90 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda joylashgan.

– MIZlar terminologiyasida hali ham yagona xalqaro standart mavjud emas. Biroq BMTSTT (2019) taklif qilgan ta'rif ilmiy va amaliy doirada keng qabul qilinmoqda va terminologik chalkashliklarni sezilarli darajada kamaytirmoqda.

– MIZlar besh asosiy tarixiy bosqichdan o'tgan bo'lib, har bir bosqich iqtisodiy globalashuv va xalqaro savdodagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Bugungi zamonaviy MIZlar barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalarga yo'naltirilgan.

– Xalqaro tajriba MIZlarning iqtisodiyotda yuqori samaraga erishishi mumkinligini tasdiqlaydi. Xitoy, Filippin, Hindiston va Bangladesh misollari eksport, investitsiya va ish o'rinlari yaratish bo'yicha aniq natijalarni ko'rsatmoqda. Biroq bu natijalarga erishish uchun kamida o'n yillik uzoq muddatli institutsional barqarorlik talab etiladi.

– O'zbekistonda MIZlarning rivojlanish sur'ati ijobiy bo'lib, 2025-yilga kelib 45 ta turli toifadagi zona faoliyat ko'rsatmoqda. 2020-yilgi Qonun va 2025-yilgi Prezident farmoni MIZlar tizimini yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan.

– O'zbekistonda MIZlar statistikasi va qonunchiligida ba'zi tizimli muammolar mavjud: barcha MIZ turlarining qonunchilikda to'liq aks etmaganligi va statistik ma'lumotlar bazasining nisbatan qisqa tarixga egaligi keyingi takomillashtirishni talab etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekistonda MIZ siyosatini yanada samarali amalga oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: statistik hisobni takomillashtirish va barcha MIZ turlarini qamrab olish; qonunchilikda hali aks etmagan MIZ turlarini (IT-parklar, agro-zonalar, klasterlar) rasmiylashtirish; xalqaro tajribani tizimli o'rganish va uzoq muddatli rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish; hamda MIZlarning milliy iqtisodiy rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashuvini ta'minlash.

Adabiyotlar/ Jumepamypa/References:

Bost, F. (2019) 'Special Economic Zones: Methodological Issues and Definition', *Transnational Corporations Journal*, 26(2), pp. 141–153. doi: 10.18356/f5b47d2b-en.

Madani, D. (1999) *A review of the role and impact of export processing zones. Policy Research Working Paper No. 2238. Washington, D.C.: World Bank.* doi: 10.1596/1813-9450-2238.

McCalla, R.J. (1990) 'The geographical spread of free zones associated with ports', *Geoforum*, 21(1), pp. 121–134. doi: 10.1016/0016-7185(90)90010-4.

O'zbekiston Respublikasi (1996) *Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining Qonuni*, 25 aprel 1996-yil. Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi (2020) *Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining O'RQ-604-son Qonuni*, 17 fevral 2020-yil. Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi (n.d.) Rasmiy statistik portal. Available at: <https://siat.stat.uz/>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2025) Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida: PF-41-son Farmon, 4 mart 2025-yil. Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (2020) Soliq kodeksi. Toshkent. Available at: <https://lex.uz/docs/-4674902>

Trampus, F. (2003) 'Challenges, Threats and New Opportunities for the World's Free Zones', *Trasporti. Diritto, economia, politica*, 89, pp. 59–76. Available at: <http://hdl.handle.net/10077/5595>

UNCTAD (2019) *World Investment Report 2019: Special Economic Zones*. Geneva: United Nations. Available at: <https://unctad.org/webflyer/world-investment-report-2019>

World Bank (2017) *Special Economic Zones: An Operational Review of Their Impacts*. Washington, D.C.: World Bank Group. Available at: <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/316931512640011812>